

US Commission on International Religious Freedom
Annual Report 2014 Uzbekistan chapter/Uzbek translation

O'ZBEKISTON

Asosiy topilmalar: O'zbekistonda dinga sig'inish va e'tiqod erkinligi qonunlar bilan qattiq cheklanib, barcha mustaqil diniy faoliyatlar shavqatsiz jazolanmoqda. Hukumat rasmiy ravishda qabul qilingan dinlarga rioya qilmagan insonlarni qamoqlarga soladi, yoki ularni ekstremistikda ayblaydi: ularning ichida 12,000 Musulmonlar ham bor. Ushbu davom etib kelayotgan doimiy, aqlga sig'maydigan huquqbuzarliklarga asoslanib 2014-yilda USCIRF O'zbekistonni "alohida etiborga loyiq davlat", yoki CPC, yoki 1998-yilgi ostida Xalqaro Din ozodligi amaliyoti (IRFA) hisobiga kiritishni tavsiya qiladi. Davlat Departamenti O'zbekistonni ishbu ro'yxatga 2006-yilda kirgizgan bo'lsada, 2009-yildan beri hech qanday rasmiy jazolashga oid tadbir ko'rmagan.

Tarixdan

O'zbekistonning 1998-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni barcha diniy guruhlarining huquqlarini qattiq cheklaydi va ushbu qonun bilan O'zbekiston hukumati diniy guruhlarini, ayniqsa, musulmon jamoalarini o'z nazorati ostiga oladi. Qonuniy ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlarni jinoyatchi deb biladi; tarqatish uchun bosmadan chiqarilgan diniy nashrlarning mazmunini rasmiy tasdiqlanganligini talab qiladi; balog'atga yetmagan o'smirlarni diniy faoliyatda ishtirokini man qiladi; va faqat diniy idora xizmatchilariga, oddiy dinga sig'inuvchi insonlarga emas, jamoada diniy kiyim kiyishga ruxsat beradi. Ko'p diniy guruhlar 13 viloyatlarning sakkiztasida mavjud bo'lgan ro'yxatdan o'tish talablarini bajara olmaydi. 2014-yilda odamlarning dinini "o'zgartiradigan" yoki shaxslarni o'z dinini o'zgartirishga undaydigan ashyolarni man qiluvchi yangi Nizom kuchga kirdi. USCIRF xodimlari 2013-yilning oktabrida O'zbekistonga tashrif buyurdi. Unda, O'zbekiston hukumati rasmiy ravishda belgilagan dinlarga rioya qilmagan shaxslarni, guruhlarini va masjidlarini yopishi yoki ularni ekstremistik siyosiy guruhlariga aloqador deb topishini aniqlandi. O'zbekiston xavfsizligiga ayrim zo'rvonlik qiluvchi diniy guruhlar rahna solayotgan bo'lsada, hukumat tinchlik yo'lini tutgan dinlarga, yoki boshqa hech qanday xavf keltirmaydigan guruhlariga mo'ljallangan ekstremizmga qarshi noaniq qonunlarni ishlatadi. Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati mustaqil musulmonlarga qarshi kurashni davom ettirmoqda. Ayrim hibsga olinganlarning ichida 2005-yildagi namoyish uyushtirgan va O'zbekistonda taqiqlangan Akromiya guruhiga aloqador dindorlar ham mavjud. Andijon – Adolat va Tiklanish tashkilotiga ko'ra, Andijon voqealariga aloqadorlikda ayblanib 231shaxs hamon qamoqda saqlanmoqda; ulardan 10 nafari mahbusligida olamdan o'tgan. O'zbekiston hukumati Andijon fojialaridan so'ng qochib ketganlarni mamlakatga qaytarishni boshqa davlatlardan talab qilishda davom etmoqda.

2013-2014-yillardagi diniy erkinlik holatlari

Ekstremizm qonuni ko'rinislari: O'zbekistonda dinga e'tiqod qilish davlat tomonidan boshqarilishini xohlamagan, yoki shunga aloqador 12 000 musulmonni, ayrimlarini 20 yilgacha bo'lgan muddatga qamashlarni oxirgi o'n yilda davom ettirib kelmoqda. Ularning ko'pchiligining ishlari sudga ko'rilmagan va ularga nisbatan qiynoq qo'llanilgan; ularning ayrimlari ruhiy kasalliklar shifoxonasida saqlanadi. Mustaqil inson huquqlarini himoya qilish

tashkilotining o'zbek guruhining ma'lumotlariga qaraganda 2013-yilda taxminan 200 dindor qamoqqa tashlangan. Hukumatning ayblashicha, qo'lga olinganlarning ko'pchiligi "Vahobiy" yoki "Jihadchi" ekstremist guruhlariga aloqador. Hukumat ushbu tushinchaga keng ravishda musulmonlar va ularning guruhlarini, jumladan, xalqaro hamjamiyat tan olgan ekstremistlarni, siyosiy muxolifatni, chet elda ta'lim olganlarni va boshqalarni kiritadi.

Qamoqlardagi sharoitlar: O'zbekiston inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot *Ezgulikning* ma'lum qilishicha qamoqdagi ayollar qiynoqqa solinadi, ularning ko'pchiligi o'z diniga e'tiqod qilganligi uchun qamalgan. O'zbekiston hukumatining rad qilishiga qaramay, qiynoqlar qamoqlarda, sud binosidagi ushlab turish xonalarida, ichki ishlar idorasining ushlab turish xonalarida doimiy davom etib kelmoqda; Qiynoq shakllaridan qo'rqitish yoki kuch ishlatish, nomusiga tegish va jabrlanuvchining nafas olish yo'lini berkitish uchun gaz niqoblari ishlatiladi. Qiynoqlar asosan kattalarga va bolalarga o'z dinidan yuz o'girishini yoki boshqa ma'lumot berishlarini talab qilish uchun ishlatiladi. 2013-yilning boshlarida Qizil Xoch Xalqaro Qo'mitasi O'zbekiston bilan rasmiy hamkorlik bo'lmaganligi sababli O'zbekistondagi o'z faoliyatini to'xtatdi.

Musulmonlar oldidagi to'g'anoqlar: O'zbekiston hukumati Islomiy jamiyatlarni qattiq nazoratda ushlaydi va ularning mustaqil faoliyatini man etadi. Farg'ona vodiysida hukumat bir nechta masjidlarni tortib olgan va bolalarning qatnashishinimnm etgan. Hukumat tomonidan boshqariladigan diniy ishlar bo'yicha qo'mita o'tkazilayotgan mashg'ulotlatni, uchrashuvlarni, imomlarni vazifalaridan cheklanganlarini nazorat qiladi va Islomiy varaqalarni va boshqa ashyolarni tekshiradi. BMTning qiynoqlarga qarshi murojatnomasiga qaramay, musulmon diniga ishonuvchi Xayrullo Tursunov Qozog'istondan O'zbekistonga qaytarilgan; 2013-yilda 16 yilga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolangan. Hozir u sil kasaliga to'lgan qamoqzonada jazoni o'tamoqda. 2013-yilning iyul oyida Ravshan Rahmatullayev o'rtog'lar bilan choyxonada din haqida gaplashganligi uchun olti yilga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolangan. Shvedsiyadan siyosiy boshpana olgan o'zbekistonlik etakchi mustaqil imom Obid Qori Nazarovga 2012-yilning boshlarida suyuqasd qilingan. Shunday to'sqinliklarga qaramay ro'yxatdan o'tgan rasmiy masjidlarda qatnashish uchun taniqli va mamlakatdagi yetakchi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufga ruxsat berilgan, hamda shayx o'z ichida inson huquqlari haqidagi ma'lumotlar beruvchi taniqli veb saytni boshqaradi.

Musulmon bo'lmagan shaxslarga qo'yilayotgan ayblovlar: Mazxabi protestantlar va Iegova Guvohlari dinidagilarni davlat ruxsatnomasidan tashqarida ish olib borayotganliklari uchun hukumat ularni "ekstremistlar" deb tan oladi va ularga juda katta miqdorda jarimalar qo'yadi, qo'lga olishadi va "qonunga zid diniy amaliyotlari" uchun qamashadi. Rasmiylar ro'yxatdan o'tgan va o'tmagan Nasroniy va Baha'yalarning uchrashuvlarini tarqatib yuboradi. Davlat tomonidan boshqariladigan ommaviy axborot vositalari kamchilik bo'lgan diniy guruhlarini taassublikda ayblab, ularni diniy ekstremistlarga tenglashtiradi. 2013-yilning oktabrida Toshkent sudi Baptistlar Ittifoqining yozgi lagerini tortib olgan.

Diniy ashyolarga qo'yilgan to'siqlar: Din ishlari bo'yicha Qo'mita (CRA) diniy ashyolarni tekshiruvdan o'tkazadi. Diniy qonun tomonidan tasdiqlanmagan diniy ashyolarni tashqariga chiqarish, saqlash, ko'paytirish va tarqatishni man qilinadi. Diniy jamiyatlarning a'zolari militsiya tomonidan o'tkazilishi mumkin bo'lgan bosqinchilikda olib qo'yilishidan qo'rqib ula4

ichun qadrli bo'lgan ashyolarni yo'q qiladilar. Hukumat ko'p chet davlatlarning vebsaytlarini, ayniqsa, inson huquqlari va diniy erkinlikka taalluqlilarini taqiqlaydi. 2013-yilda CRA rasmiysi O'zbekiston qonunlari bo'yicha diniy matnlar faqat ro'yxatdan o'tgan diniy guruhlarining binolarining ichida o'qilishi mumkinligini aytgan.

Diniy ta'limga ta'qiqlar: Diniy ta'limotlar berish faqat rasmiy tarzda ruxsat berilgan diniy ta'lim muassasalari diniy ta'lim berish huquqi berilgan. (Ushbu muassasalarning viloyatlardagi bo'limlarini hisobga olganda jami 8 ta). 2013-yilda 12 yoshli o'g'lining "noqonuniy" diniy ta'limoti uchun bir ayol javobgarlikka tortilgan; U ikki protestantdan san'at darslari olgan. Shaxsiy diniy ta'limot jazolanadi. 2010-yilda diniy muallim Mehriniso Hamdamova yetti yilga qamalga; aniqlanishicha, hozirda Hamdamova tez tibbiy yordam muhtoj. Hukumat diniy maqsadda chet mamlakatlarga chiqishni ham man etadi va shunday sayohatlarga borish man etilgan shaxslarning ro'yxatini saqlaydi.

AQSh davlatiga tavsiyalar

O'tgan o'n yil davomida, AQShning O'rta Osiyodagi dasturlari asosan Afg'onistondagi urushga qaratilgan bo'lib inson huquqlari va diniy erkinlik asosiy majburiyatlar ichiga kirmagan.

USCIRF ushbu dasturlar chuqur o'ylanilmagan deb biladi. Rivojlanayotgan mintaqaviy siyosiy holat Amerika Qo'shma Shtatlari uchun yangi xavfsizliklarni yuzaga keltirishi mumkin, lekin USCIRF AQSh hukumatini O'zbekistondagi diniy erkinlik va inson huquqlariga etibor berishiga undaydi. Ushbu tavsiyalarga qo'shimcha, AQSh hukumati CPC va USCIRFning AQShdan O'zbekiston bo'yicha quyidagilarni talab qilishini so'raydi:

90-180 kun ichida holatlar yaxshilanmasa 2009-yilda bekor qilingan sanksiyalarni CPC ko'rsatmalari bo'yicha qaytadan amalga kiritish; uning ichiga O'zbekistonlik katta lavozim egalarning Amerika Qo'shma Shtatlariga kirish imkoniyatini cheklash;

AQSh talablarining inson huquqlarini himoya qilish talablari barcha AQSh vazirliklariga keng bildirilishini ta'minlash va O'zbekiston hukumati bilan shaxsiy muloqotda bo'lib diniy asrlarni ozod qilish, ehtiyotkorlik choralarini ko'rish;

AQSh elchixonasi inson huquqlari faollari bilan doimiy aloqada bo'lishini ta'minlash va O'zbekiston hukumatini qamoqlardagi asrlarni oila a'zolari bilan muntazam aloqada bo'lishini, inson huquqlarini tekshirish, lozim bo'lgan tibbiy yordam ko'rsatilishi va himoyachiga imkon berilishini ta'minlash;

AQSh tomonidan shart ostida yordam ko'rsatish: gumanitar va inson huquqlari dasturlari undan mustasno, O'zbekiston hukumati tomonidan diniy erkinlik holatlarini yaxshilash va xalqaro inson huquqlari standartlarini, ularning ichiga 1998-yilda amalga kirgan diniy qonunlar va 2005-yil Andijon voqealarini tekshirish, xalqaro tekshirishga ruxsat berishni ta'minlash;

Axborot qo'mitasi boshqaruv organlarini oldinda yopilishi gumon bo'lgan Amerika Ovozini moliyaviy tomondan ta'minlashni davom ettirishga ishonitirish;

Davlat departamentining izlanish, uning ichiga diniy erkinlik va inson huquqlari, shuningdek Evro-Osiyoga aloqador til dasturlari kiritish; Title VIII dasturini qaytatdan tiklash; va

BMTning Inson huquqlarini himoya qilish kengashini O'zbekistondagi inson huquqlariga jiddiy etibor berishi uchun bosim o'tkazish, va boshqa OSCE kabi tashkilotlarni O'zbekiston hukumatini BMT maxsus diniy erkinlik va ishonch mutaxassislarini, mustaqil adliya va qiynoq borasidagi mutaxassislariga tashrif etish uchun aniq kun belgilash va to'liq va zarur narsalar bilan taminlash kiradi.

